



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



URGANCH RANCH TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI
Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
Tayanch doktorantura (PhD)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

URGANCH RANCH TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ESHCHANOV BAXTIYOR RUZUMBAYEVICH

Yangi O'zbekiston universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: JOAQUIM MIGUEL DIAS SOEIRO

Sunway University

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAI260005
Xulosa raqami	1017
Xulosa sanasi	11.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"URGANCH RANCH TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Xorazm viloyati, Urganch shahri, Xonqa ko'chasi, 26-a-uy. Guvohnoma: MAS № 0000290, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	08.00.05
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000290, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	08.00.05 – Economics of Service Industries
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	Tayanch doktorantura
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	—
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	3 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	8-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Tadqiqotchi (PhD)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	30 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Xorazm viloyati, Urganch shahri, Xonqa ko'chasi, 26-a-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ichki me'yoriy asoslar, rivojlantirish strategiyalari, sifatni ta'minlash tizimi hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturini boshqarishga oid materiallar kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 08.00.05 – "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv va institutsional asoslar shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari universitetning strategik rivojlanish yo'nalishlari hamda mintaqada xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ehtiyoji bilan uyg'unlashtirilgani kuzatildi. Dasturni amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmaning vakolat va funksiyalari normativ hujjatlar bilan belgilab qo'yilgani, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlashga qaratilgan tartiblarning amaliyotga joriy etilgani qayd etildi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limni tashkil etish bo'yicha zarur institutsional tayyorgarlikning mavjudligi, boshqaruv jarayonlarini izchil yo'lga qo'yish va ta'lim sifatini muntazam nazorat qilish imkoniyatlarini yaratishi aniqlandi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar va daliliy materiallar asosida ta'lim dasturining mazmuni belgilangan mezonlar bo'yicha tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 08.00.05 – "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturini ishlab chiqish, tasdiqlash, rivojlantirish va monitoring qilish jarayonlari belgilangan tartib asosida yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan ilmiy natijalari

hamda shakllantiriladigan kompetensiyalar Milliy malakalar ramkasining 8-darajasi va oliy ta'limdan keyingi ta'limga qo'yilgan talablarga muvofiq belgilangani, ularning universitetning strategik rivojlanish yo'nalishlari hamda hududiy ehtiyojlar bilan uyg'unligi kuzatildi. Dastur mazmunining xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti sohasida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgani, shuningdek, Xorazm mintaqasidagi turizm, logistika, savdo va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanish ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqligi ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va kutilayotgan ilmiy natijalari belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar asosida ilmiy tadqiqot jarayonini tashkil etish, izlanuvchilar faoliyatini monitoring qilish hamda tadqiqot natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar bo'yicha tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida izlanuvchilar faoliyatini baholash, ilmiy rahbarlar tomonidan muntazam nazoratni amalga oshirish, tadqiqot natijalarini monitoring qilish, akademik halollikni ta'minlash hamda baholash natijalari yuzasidan fikr-mulohazalar va apellyatsiyalarni ko'rib chiqish bo'yicha ichki tartiblar ishlab chiqilgani aniqlandi. Individual tadqiqot rejasi, yarim yillik monitoring, kafedra muhokamalari, ilmiy rahbar xulosalari hamda baholash mezonlarining amaliyotga joriy etilgani ilmiy tadqiqotlarning izchil va tizimli olib borilishini ta'minlashi kuzatildi. Akademik halollik va akademik erkinlik tamoyillarining belgilangan tartibda qo'llanilishi ilmiy natijalarning ishonchligi, xolisligi va sifatini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, ilmiy tadqiqot jarayonini tashkil etish, monitoring qilish va tadqiqot natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar asosida izlanuvchilarni qabul qilish, ularning faoliyatini tashkil etish hamda qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar bo'yicha tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida qabul mezonlari va talablari, ularni talabgorlar hamda manfaatdor tomonlarga yetkazish tartibi, qabul komissiyasi faoliyatini tashkil etish, imtihon yoki suhbat natijalarini rasmiylashtirish hamda apellyatsiya va qayta ko'rib chiqish mexanizmlariga oid ichki tartiblar ishlab chiqilgani aniqlandi. Qabul jarayonining daraja.ilmiy.uz yagona elektron tizimi orqali amalga oshirilishi, hujjatlarni onlayn qabul qilish va ko'rib chiqish imkoniyatining yaratilgani jarayonning ochiqligi, shaffofligi hamda xolisligini ta'minlashga xizmat

qilishi kuzatildi. Shuningdek, izlanuvchilarni ilmiy faoliyati davomida akademik va metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga maslahat berish, zarur hollarda o'qish muddatini uzaytirish yoki o'qishdan chetlashtirish bilan bog'liq jarayonlarni tartibga soluvchi mexanizmlarning amaliyotga joriy etilgani qayd etildi. Umuman, izlanuvchilarni qabul qilish, ularning faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida inson resurslarini shakllantirish, ilmiy rahbarlik tizimi hamda ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga oid hujjatlar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida izlanuvchilar faoliyatini tashkil etish, ularni qabul qilish, ilmiy faoliyat davomida qo'llab-quvvatlash va metodik jihatdan yo'naltirish bo'yicha zarur tashkiliy mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun qabul qilish, ilmiy faoliyatni olib borish hamda ilmiy rahbarlikni tashkil etishga oid aniq va shaffof tartiblarning amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Ilmiy rahbarlar va ilmiy konsultantlarning yuqori malaka hamda ilmiy darajaga ega ekani, ularning ilmiy va metodik tajribasi izlanuvchilarning tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish va ilmiy natijalar sifatini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, kadrlarni rag'batlantirish, ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda ilmiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarning mavjudligi aniqlandi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, moddiy-texnik baza to'g'risidagi ma'lumotlar hamda ekspertlar uchun tashkil etilgan virtual tur natijalari belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 08.00.05 – "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti va raqamli infratuzilma shakllantirilgani aniqlandi. Ixtisoslikning iqtisodiy tahlil, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, ekonometrik modellashtirish, biznes analitikasi va ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilganligi inobatga olingan holda, zamonaviy kompyuter texnikasi, statistik dasturiy vositalar hamda xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlari ilmiy tadqiqotlarning sifatli olib borilishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlashi kuzatildi. Ilmiy kutubxona fondi, elektron axborot-resurslar va raqamli infratuzilmaning mavjudligi izlanuvchilarning ilmiy faoliyatini qo'llab-

quvvatlash hamda zamonaviy ilmiy manbalardan samarali foydalanishga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti va raqamli infratuzilma belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Statistik va ekonometrik tahlil uchun litsenziyalik dasturiy ta'minot bazasini mustahkamlash maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish.
- ✓ Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari va elektron resurslarga kirishni kengaytirish.
- ✓ Ekonometrik modellashtirish va biznes analitika uchun dasturiy ta'minotni yangilash.
- ✓ Ilmiy rahbarlar salohiyatini oshirish va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Urganch RANCH texnologiya universiteti" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 08.00.05 – "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) ta'lim dasturi uchun taqdim etilgan hujjatlar, ilmiy-tadqiqot jarayonini tashkil etish mexanizmlari, inson resurslari hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilgani, dastur maqsadlari universitetning strategik rivojlanish yo'nalishlari hamda hududning ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilgani aniqlandi. Ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, izlanuvchilar faoliyatini monitoring qilish, akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash hamda tadqiqot natijalarini baholash tizimining amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Ilmiy rahbarlar tarkibining yetarli ilmiy salohiyat va malakaga ega

ekani, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli infratuzilmaning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur sharoitlarni yaratishi qayd etildi. Tahlil davomida aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega ekani e'tirof etildi. Umuman, ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlari bo'yicha belgilangan talablarni qanoatlantirishi tasdiqlandi va dastur akkreditatsiya talablari bo'yicha muvofiq deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

